



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 9 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 9

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 9



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш муҳандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Otabek Alimardonov “MIGRATION AS A TOOL OF PUBLIC DIPLOMACY IN CENTRAL ASIA: CHALLENGES, STRATEGIES, AND PROSPECTS”.....	5
2. Nilufar Djurayeva SOVET DAVRIDA XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARI: MAQSAD VA VAZIFALAR, NATIJA VA MUAMMOLAR.....	14
3. Нодира Джанибекова ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ОЛИЙ МАЖЛИСА ВТОРОГО СОЗЫВА.....	25
4. Боходир Эшов, Нурали Ҳазратов, Шавкат Каромов УСТРУШОНАДАГИ ИЛК ДАВЛАТ УЮШМАСИ ТАРИХИНИНГ ТАХЛИЛЛАРИ.....	30
5. Бехзод Исабеков ҚОВУНЧИ МАДАНИЯТИНИНГ КАТАКОМБА ҚАБРЛАРИ: ОҲАНГАРОН, КАНДИРСОЙ МИСОЛИДА.....	38
6. Ibragim Ibragimov QUYI AMUDARYO HUDUDIDA HUNARMANDCHILIK TARIXI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR.....	44
7. Shuhrat Norov ZARAFSHON VOHASI VILOYATLARIDA YOSHLAR TASHKILOTLARINING IJTIMOIIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDAGI ROLI.....	48
8. Muxlisa Ro‘ziyeva O‘ZBEKISTONDA 1991–2025- YILLARDA BOLALAR SPORT SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI.....	53
9. Xo‘sinboy Sapayev KO‘CHMANCHI SAK QABILALARINING DINIY E‘TIQODLARI, URF-ODAT VA AN‘ANALARI.....	58
10. Mansur Fayzullayev XX ASRNING 60-80-YILLARIDA O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGINING IXTISOSLASHTIRILISHI (SURXONDARYO, QASHQADARYO VILOYATLARI MISOLIDA).....	63
11. Турғунжон Ярмагов ЭТНОГРАФИК ЖИХАТДАН ФОЛЬКЛОП МАНБАЛАРНИ ЎРГАНИШНИНГ ТАДҚИҚОТ МЕТОДЛАРИ.....	68
12. Gulom Djumamuratov O‘ZBEK ULUSIDAGI OROL O‘ZBEKLARI ETNIK TARKIBIGA DOIR MANBALAR TAHLILI.....	73



Nilufar Dalibayevna Djuraeva,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasini mudiri,
tarix fanlari nomzodi, professor

SOVET DAVRIDA XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARI: MAQSAD VA VAZIFALAR, NATIJA VA MUAMMOLAR

For citation: Nilufar D. Djuraeva. WOMEN’S ORGANIZATIONS IN THE SOVIET PERIOD: GOALS AND TASKS, RESULTS AND PROBLEMS. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 9.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17548773>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola sovet davrida O‘zbekistonda xotin-qizlar tashkilotlarining tuzilishi, vazifalari, faoliyat yo‘nalishlari va ularning jamiyatga ta‘sirini har tomonlama tahlil qiladi. Maqolada tashkilotlarning ijtimoiy transformatsiyadagi o‘rni o‘zbek xalqining an‘anaviy qadriyatlariga nisbatan ko‘rib chiqiladi. Sovet davrida xotin-qizlar tashkilotlari ayollarning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotga faol jalb etish uchun tashkil etilgan muhim ijtimoiy institutlar hisoblanadi. Ularning asosiy maqsadi – ayollarning ta‘lim olishini, savodxonlik darajasini oshirish, ish bilan bandligini ta‘minlash va ularni sovet ideologiyasi doirasida yangi jamiyat qurilishida faol ishtirok etishga rag‘batlantirishdan iborat edi. Ushbu tashkilotlar ayolning an‘anaviy oilaviy roli bilan sovet davrining yangi ijtimoiy talablarini uyg‘unlashtirishga harakat qilgan va “yangi sovet ayoli”ning yaratilishida ko‘plab ijtimoiy vazifalarni bajargan. Umuman olganda, xotin-qizlar tashkilotlari sovet mafkurasini targ‘ib qilgan bo‘lsa-da, jamiyatida ayollarning ijtimoiy faolligi va huquqiy holatini yaxshilashda muhim rol o‘ynagan. Ya‘ni bu tashkilotlarning mohiyat-maqsadi sovet mafkurasi asosida tashkil etilgan bo‘lsa-da, ijtimoiy taraqqiyot hamda erkaklar va ayollar tenghuquqliligini ta‘minlanishiga zamin yaratgan.

Kalit so‘zlar: sovet davri, O‘zbekiston, xotin-qizlar tashkilotlari, ijtimoiy transformatsiya, o‘zbek xalqi, an‘anaviy qadriyatlar, jamiyat, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot, ijtimoiy institutlar, ta‘lim olish, savodxonlik darajasi, ish bilan bandlik, sovet ideologiyasi, huquq va imkoniyatlar, muammolar, siyosiy va ijtimoiy faollik, diniy va milliy an‘analar, ziddiyatlar, markaziy siyosat, sovet mafkurasi.

Нилуфар Далибаевна Джураева,
Узбекский государственный университет мировых языков
Заведующая кафедрой истории Узбекистана,
Кандидат исторических наук, профессор

ЖЕНСКИЕ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД: ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ, РЕЗУЛЬТАТЫ И ПРОБЛЕМЫ

АННОТАЦИЯ

В данной статье всесторонне анализируются структура, задачи и направления деятельности женских организаций Узбекистана в советское время, а также их влияние на общество. В статье рассматривается роль организаций в социальных преобразованиях, связанных с традиционными ценностями узбекского народа. В советское время женские организации были важными социальными институтами, созданными для активного вовлечения женщин в политическую, экономическую и культурную жизнь. Их главной целью было обеспечение образования женщин, повышение уровня их грамотности, обеспечение их занятости и поощрение их активного участия в строительстве нового общества в рамках советской идеологии. Эти организации стремились примирить традиционную семейную роль женщин с новыми социальными требованиями советской эпохи и выполняли многие социальные задачи по формированию «новой советской женщины». В целом, хотя женские организации и продвигали советскую идеологию, они сыграли важную роль в повышении социальной активности и правового статуса женщин в обществе. То есть, хотя суть и цели этих организаций основывались на советской идеологии, они служили обеспечению социального прогресса и равенства мужчин и женщин.

Ключевые слова: советская эпоха, Узбекистан, женские организации, социальная трансформация, узбекский народ, традиционные ценности, общество, политическая, экономическая и культурная жизнь, социальные институты, образование, уровень грамотности, занятость, советская идеология, права и возможности, проблемы, политический и общественный активизм, религиозные и национальные традиции, конфликты, центральная политика, советская идеология.

Nilufar D. Djuraeva,

Uzbek State University of World Languages
Head of the Department of History of Uzbekistan,
Candidate of Historical Sciences, Professor

**WOMEN'S ORGANIZATIONS IN THE SOVIET PERIOD:
GOALS AND TASKS, RESULTS AND PROBLEMS****ABSTRACT**

This article comprehensively analyzes the structure, tasks, areas of activity of women's organizations in Uzbekistan during the Soviet era, and their impact on society. The article examines the role of organizations in social transformation in relation to the traditional values of the Uzbek people. During the Soviet era, women's organizations were important social institutions established to actively involve women in political, economic, and cultural life. Their main goal was to ensure women's education, increase their literacy rate, ensure their employment, and encourage them to actively participate in building a new society within the framework of Soviet ideology. These organizations tried to reconcile the traditional family role of women with the new social requirements of the Soviet era and performed many social tasks in the creation of the "new Soviet woman." In general, although women's organizations promoted Soviet ideology, they played an important role in improving the social activity and legal status of women in society. That is, although the essence and purpose of these organizations were based on Soviet ideology, they served to ensure social progress and equality between men and women.

Index Terms: Soviet era, Uzbekistan, women's organizations, social transformation, Uzbek people, traditional values, society, political, economic and cultural life, social institutions, education, literacy rate, employment, Soviet ideology, rights and opportunities, problems, political and social activism, religious and national traditions, conflicts, central policy, Soviet ideology.

Dolzarbliqi:

Ma'lumki, sovet hokimiyatining dastlabki yillarida "Xotin-qizlar masalasi" mamlakatni iqtisodiy modernizatsiya qilish dasturini amalga oshirayotgan davlat manfaatlaridan kelib chiqqan

holda hal etildi. 1920-yillar sovet hokimiyati, kommunistik partiya rahnamolari va davlat rahbarlarining “yangi” shaxs, shu jumladan “yangi” ayol obrazini jamoatchilik ongiga singdirishga e’tiborining kuchayishi bilan xarakterlanadi. “Yangi” ayol obrazi o’ziga xos “sovet” xususiyatlariga ega bo’lib, ya’ni ijtimoiy faol ayol, kutubxonalar, qiroat xonalari, savodxonlik maktablariga tez-tez boradigan mehnatkash ayol yaqin o’tmishdagi “diniy xurofot” iskanjasida qolgan “savodsiz va madaniyatsiz” uy bekasi bo’lgan inqilobdan oldingi an’anaviy ayol obrazi bilan qarama-qarshi qo’yildi.

Manbalarda xotin-qizlar bo’limlarining faoliyat yo’nalishlari va vazifalari quyidagilar etib belgilanganligi qayd etilgan: “Ularning birinchi vazifasi - ayol ishchi va dehqonlarni kommunizm ruhida tarbiyalash va ularni partiyamizga jalb etish. Ikkinchi vazifa - ayollar ommasini sovet qurilishiga jalb qilish... Bo’limlarning uchinchi vazifasi - partiya oldiga sovet jamiyati qurilishi jarayonida ayollarning jinsi bo’yica ham o’ziga xos xususiyatlarini (masalan, onalik, ayollar mehnatini himoya qilish, abort to’g’risidagi qonunlar) inobatga olish kabi masalalarni ilgari surishdir. Chunki, sovetlarning xotin-qizlarga munosabat masalasidagi siyosati ayollarning oiladan begonalashuvini talab etar edi. Shuning uchun ham, 1921 yil 5-7 aprel kunlari bo’lib o’tgan Sharq xotin-qizlari tashkilotchilarining birinchi majlisida “Ajrallish erkinligi dekreti”, “Nikoh yoshi va qalin haqida dekret” ishlab chiqish[25] kabi masalalar kun tartibidan o’rin olgan edi. 1921 yil iyunda Turkiston ASSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Komitetining balog’atga yetmagan qizlarni erga berishni va ko’p xotinlilikni ta’qiqlash, qalinni bekor qilish to’g’risidagi dekreti qabul qilindi. Nikoh yoshi shariatdagi 9 yosh o’rniga 16 yosh qilib belgilandi[26]. RSFSR Jinoyat Kodeksining 10 bobi “Oiladagi, maishiy turmushdagi eskilik sarqitlariga qarshi kurash haqida” bo’lib, qalin olinishi kelinni sotib olish deb, belgilandi[27]. Shuningdek, 1928 yil MIQ ning III sessiyasi O’zbekiston SSR uchun nikoh haqida yangi qonun qabul qildi. Unga ko’ra nikohga kirish uchun o’smir yigitlar yoshi 18, qizlarning yoshi 16 qilib belgilandi. Shu bilan birga nikoh har ikki tomonning roziligi asosida qurilishi lozim edi. Er-xotin birinchi nikohdan huquqiy ajralmasdan turib, ikkinchi nikohga kirishi qonun bilan ta’qiqlab qo’yildi. Er-xotinning har ikkalasi ham ajralish masalasida teng huquqqa ega, deb belgilab qo’yildi[28]. Bu qonunning ijobiy tomonidir. “Qalin va ko’pxotinlikka” qarshi kurash haftaliklari, hatto kunlari belgilanib, tadbirlar olib borilgan. Shuningdek, ular chiqargan qarorlarning birida: “Ajrallish ishlari bir haftadan kechiktirmay ko’rib chiqilsin”, degan band mavjud edi[29]. Chunki, “Hujum” davrida sudlarga ajralish xususida juda ko’plab arizalar kelib tushgan bo’lib, ular sovetlarning yuqorida keltirilgan balog’atga yetmagan qizlarni erga berishni va ko’p xotinlilikni, qizlarning roziligisiz nikoh o’qitishni ta’qiqlash, qalinni bekor qilish kabi yangi qonunlariga tayanib, majburiy nikohdan norozi bo’lgan va o’zlarining keksa erlaridan ajralishni istagan ayollar edi. Natijada oila va nikoh masalalarida sovet hokimiyatining olib borgan siyosati minglab oilalarning buzilishiga, bolalarning ota-onalari o’rtasida sarson-sargardon bo’lishiga, qo’ydi-chiqdilarining ommalashuviga, oilaning qadrsizlanib, ijtimoiy mavqeining yo’qolishiga, ariza bergan ayollarning eri, otasi yoki aka-ukalari tomonidan jazolanishiga sabab bo’ldi[30]. Chunki, asrlar davomidagi an’anaviy turmush erkaklarning oiladagi imtiyozli o’rnini ta’minlar edi. Shiddat bilan kirib kelgan bolsheviklarning oila va nikoh masalasidagi inqilobiy o’zgarishlari avvalom bor erkaklarga qattiq ma’nan zarba bergan bo’lsa, ayollarni tasavvursiz “porloq hayot” sari undadi. Bu esa, ayollarning haqiqiy baxti bo’lgan oilasidan mahrum bo’lishiga olib keldi. Shuningdek, ayollarning oila doirasidagi faoliyati qoralanib, ijtimoiy mehnat turi sifatida qadrlanmaganligi natijasida oila o’zining ijtimoiy mavqeidan ajralib maishiy ishga aylanib qoldi.

Xotin-qizlarning erkaklar bilan huquqiy tengligini ta’minlash, ularni jamoat ishlariga keng jalb etish, jamiyat va davlatni boshqaruvida ishtirok etishini ta’minlash, socialistik inqilob sharoitida uy xo’jaliklarini kollektivlashtirish — “ayollar masalasi”ni hal etishda hokimiyatning o’z oldiga qo’ygan asosiy vazifalari edi. Shu maqsadda xotin-qizlar bo’limlari, delegatlar yig’inlari orqali ayollarni mehnat va siyosiy ishlarga safarbar etish, ularni ijtimoiy faollarga aylantirish uchun foydalanildi. Hukumat ayollarni “uy qulligi”dan ozod qilishga qaratilgan sa’y-harakatlariga qaramay, ayollarning ona, xotin va uy bekasi degan an’anaviy tushunchalari kundalik hayotdan o’chirilmagan.

Sovet davrida O‘zbekistondagi xotin-qizlar tashkilotlari faoliyati mohiyatan sovet mafkurasi asosida tashkil etilgan bo‘lsa-da, zamonaviy gender siyosati kontekstida muhim ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega. Sovet davrida kommunistik partiya rahbarligi ostida tuzilgan xotin-qizlar tashkilotlari ayollarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotda faol ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan muhim ijtimoiy institutlar bo‘lib, socialistik jamiyat qurilishida muhim rol o‘ynagan. Bu tashkilotlarning faoliyati mahalliy madaniy va diniy an‘analar bilan bog‘liq ziddiyatlar bilan bog‘liq holda kechdi. Ularning maqsadi sovet mafkurasi asosida ayollarning ta‘lim olishini, mehnatga jalb qilinishini va sovet jamiyatida teng huquqlilikni targ‘ib qilishdan iborat edi. Sovet hokimiyati o‘zining yakkahokimlik siyosatini amalga oshirishda xotin-qizlar bo‘limlari faoliyatidan samarali foydalandi. Sovet hokimiyati xotin-qizlarining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotidagi o‘rniga munosabat masalasida inqilobiy o‘zgarishlarga, ma‘muriy-buyruqbozlik siyosatiga asoslangan chora-tadbirlarga tayanib ish olib bordi. Ushbu tashkilotlar ayollarning an‘anaviy oila qadriyatlarini bilan sovet ideologiyasi talablarini uyg‘unlashtirish jarayonida faol rol o‘ynadi. Biroq, kommunistik mafkuraning maqsad-manfaatlariga muvofiq siyosiy cheklovlar, diniy va madaniy qarama-qarshiliklar hamda hududiy shart-sharoitlar tufayli ularning faoliyati murakkab va ziddiyatli bo‘lgan. Sovet davrida xotin-qizlar tashkilotlari faoliyati va muammolarining o‘rganilishi gender tengligi va ayollarning jamiyatdagi maqomini yanada chuqur anglash uchun dolzarbdir. Shuningdek, sovetlarning xotin-qizlarga munosabatini bugungi kundagi mamlakatimiz xotin-qizlariga bo‘layotgan e‘tibor bilan qiyosiy taqqoslash orqali, uning mustamlakachilik mohiyatini o‘rganish ilmiy nuqtai nazardan muhimdir.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi:

Maqolada sovet davrida xotin-qizlar tashkilotlarining o‘rni, maqsad va vazifalarini tadqiq etishda tarixiy, qiyosiy tahlil, davriy muammolik, xolislik tamoyillari va kompleks yondashuv metodidan foydalanildi. Shuningdek, maqolada ko‘tarilgan mavzu mohiyatini yoritishda R.X.Aminovning “Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане”, D.A.Alimovning “Женский вопрос в Средней Азии. История изучения и современные проблемы”, Ya.A.Abdullayevaning “Qoraqalpog‘iston xotin-qizlari: kecha va bugun (XIX asrning oxiri va XX asr)”, R.Madraximovning “O‘zbekiston xotin-qizlarining ulug‘ vatan urushi yillaridagi mehnat va harbiy jasoratlari”, G.N. Kamenevning “Деятельность женсоветов в решение социальных вопросов: история и современность”, N.W.Popovning “О роли женщин в социалистическом обществе” nomli asarlaridan foydalangan holda, xotin-qizlar tashkilotlari faoliyatida erishilgan natijalar va ularning ziddiyatli mohiyati tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalari:

Sovet davrida xotin-qizlar tashkilotlari kommunistik mafkura manfaatlarini asosida amalga oshirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tadbirlarning muhim vositasi sifatida xizmat qildi. Bu tashkilotlar, xususan, Sovet Xotin-qizlar Qo‘mitasi va mahalliy Xotin-qizlar kengashlari (jenotdel) oshkora siyosat orqali ayollar tenghuquqliligini ta‘minlash, ularning ta‘lim va mehnat sohasidagi ishtirokini oshirish hamda huquqlarini himoya qilish maqsadida tashkil etilgan deb targ‘ib qilingan bo‘lsa-da, aslida bosh maqsad sovetlar siyosatining hayrihoxlarini shakllantirishga qaratilgan edi. O‘zbekiston SSR kabi respublikalarda bu tashkilotlar mahalliy an‘ana va milliy madaniyat bilan to‘qnash kelgan holda faoliyat yuritdi.

Sovet davrida O‘zbekistonda xotin-qizlar tashkilotlari ayollarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi o‘rnini o‘zgartirishda muhim rol o‘ynadi. Kommunistik partiya rahbarligi ostida tashkil etilgan bu tashkilotlar ayollar huquqlarini mustahkamlash, ta‘lim va mehnat sohasida tenglikni ta‘minlashga qaratilgan sovetlar siyosatini amaliyotga tatbiq etishda muhim vazifalarni bajardi.

1917-yilgi oktyabr inqilobidan so‘ng erkaklar va ayollarning tenghuquqliligini ta‘minlashni davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘lon qildi. 1918-yil dekabrda RKP(b) MK maxsus ko‘rsatmasi bilan xotin-qizlar o‘rtasida tashviqot va tashviqot bo‘yicha mahalliy komissiyalar tuzish taklifi o‘rtaga tashlandi. 1919-yil VIII partiya s‘yesdida xotin-qizlar o‘rtasida ish olib boruvchi maxsus organlarni tashkil etish g‘oyasi ma‘qullangandan so‘ng komissiyalar partiya qo‘mitalari tarkibida ayollar o‘rtasida ishlash bo‘limlariga aylantirildi.

Sovet hukumati vakillari o'zlarining mustamlakachilik va ulug'millatchilik siyosatining maqsad va manfaatlaridan kelib chiqib, mahalliy millat xotin-qizlarini ijtimoiy-siyosiy faolligiga erishish uchun 1919-yil 12-noyabrda RKP(b)ning Turkiston o'lka qo'mitasi xotin-qizlar bo'limi tashkil topdi[2]. Xotin-qizlar bo'limining asosiy vazifasi ayol-ishchi va dehqonlarni partiya-davlat ishlariga jalb etish, ularning siyosiy ongi va dunyoqarashi hamda ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishdan iborat bo'lgan. Ushbu vazifani amalga oshirishda Xotin-qizlar bo'limining asosiy faoliyati tizimli tashviqot ishlarini olib borib, ayollar o'rtasida mitinglar, ma'ruzalar, miting-konsertlar va teatr sahnalari tashkil etishga qaratilgan. Xotin-qizlar uchun broshyuralar chop etilgan. "Ishtirokiyun" gazetasi muharririyati tomonidan o'zbek tilida mahalliy ayollar uchun "Sizga so'zimiz", "Onalarga" va hokazo siyosiy mavzularda ommabop broshyuralar chop etilgan[3]. Mintaqaviy "Izvestiya" gazetasida ayol-ishchilar uchun maxsus sahifa ochilgan.

1919-yil dekabr oyida Toshkent shahar partiya qo'mitasida L.Dvorkina rahbarligida xotin-qizlar bo'limi tashkil etildi[4]. Uning tarkibida xotin-qizlar harakatining faollaridan Z.Yusupova, F.Redkina, M.Xusanbayeva, Z.Karimova, Z.Burnasheva, M.Gafarova, Lisovaya va boshqalar doimiy ravishda zavod va fabrikalarda xotin-qizlar o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishgan[5]. Shundan so'ng, hududlarda ham xotin-qizlar bo'limlarini tashkil etish masalasiga alohida e'tibor berila boshlandi. Xususan, Farg'ona va Sirdaryoga xuddi shunday bo'limlarni tashkil etish uchun instruktor L.I.Shumileva yuborilgan[6]. Natijada barcha viloyatlarda markazdan kelgan yevropa va tatar millatiga mansub etakchi ayollar mas'ulligida xotin-qizlar bo'limlari tashkil etila boshlandi[7].

RKP(b)Turkiston o'lka qo'mitasi qoshidagi xotin-qizlar harakati bo'limi 5 ta shtatdan iborat tarkibda ayollar bilan ishlash o'lka bo'limi sifatida qayta tashkil etildi[1]. Mazkur bo'lim tizimli ravishda yana 2 ta, ya'ni tashkiliy va targ'ibot-tashviqot ishlarini olib boruvchi bo'linmalarga muvofiq faoliyat olib borgan. 1920-yilda Turkiston o'lka qo'mitasi xotin-qizlar bo'limi 9 ming nafar xotin-qizlarni birlashtirgan 45 ta mahalliy xotin-qizlar bo'limi (jenotdel)larni boshqargan bo'lsa, 1921-yilga kelib, mahalliy xotin-qizlar bo'limi soni 61 taga etdi, shundan, 7 tasi viloyatlarda, 31 tasi uyezd va 23 tasi tumanlarda tashkil etilgan edi. Mazkur bo'limlardagi faol xotin-qizlar soni esa 16 ming nafarni tashkil etdi[8]. Xususan, Qo'qonda T.Shodiyeva T.Ibragimova, K.Karimberdiyeva, T.Mavlyanbekova (1919-yil, mart), Andijonda X.Abdurahmanova, G.Abdullayeva, R.Ismailova, R.Ismatullayeva (1919-yil, noyabr), Samarqandda F.Niyazova, T.Juraboyeva, M.Kobilova, Farg'onada O.Xolmatova, Xadichaxon (hujjatlarda familiyasi saqlanmagan) (1920-yil, fevral), Sirdaryoda Sh.G'oyibjonova, Buxoroda G.Abdullayeva (1920-yil, noyabr), Qashqadaryo viloyatida M.Xusanboyeva kabi faol-etakchi ayollar shular jumlasiga kiradi[9]. Qoraqalpog'istonda esa, 1920-yil fevralda Petro-Aleksandrovsk (To'rtko'l)da dastlab 30 kishidan iborat mehnatkash xotin-qizlar ittifoqi tashkil topdi va shu yilning oxirida shahar partiya qo'mitasining xotin-qizlar bo'limiga aylantirildi. Ushbu bo'lim 1925-yildan amalda haqiqiy faoliyat yurita boshladi. Tashkilotchilari esa, asosan, rus millatiga mansub ayollar bo'lgan[10]. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mahalliy xotin-qizlarni siyosiy-ijtimoiy jihatdan tarbiyalash maqsadida markazdan rus va tatar millatiga mansub etakchi ayollar jalb etildi[11]. Ular faoliyatidagi asosiy vazifa mahalliy xotin-qizlar o'rtasidagi ishlarni kuchaytirishdan iborat edi. Chunki, 20-yillar ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarni "ozod qilish muammosi" alohida o'rin egallaganligi bois, xotin-qizlar faoliyatiga ta'sir etishning mafkuraviy va ishlab chiqarish omillari tashkil etildi.

Xotin-qizlar bo'limlari faoliyati quyidagi uchta asosiy yo'nalishda tashkil etildi:

1. Siyosiy tarbiya va faollikni kuchaytirish: Ayollarni targ'ibot-tashviqot faoliyati orqali "sosialistik qurilish" jarayonlariga keng jalb qilish va ularning siyosiy ongini oshirishga qaratilgan turli shakldagi tadbirlarni amalga oshirish (turli shakldagi ijtimoiy-siyosiy yig'ilishlar (mitinglar, slyot, qurultoy, s'yezd, konferensiya, majlis, kengash), madaniy tadbirlar, rag'batlantirish). Mazkur tadbirlarda xotin-qizlarning o'zlaridan foydalangan holda, ijtimoiy faol, kommunistik partiyaning "yetakchi-lider", "xayrixoh" xotin-qizlar qatlamini shakllantirish, "kommunistcha turmush tarzi"ni targ'ib etish.

2. Iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash: Ayollarni tegishli artellar va kasaba uyushmalariga jalb qilish orqali ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va mehnat unumdorligini sun'iy jadallashtirishga qaratilgan musobaqalar, maxsus tashkil etilgan brigada va zvenolar, "ijtimoiy buksirlar", zarbdor ish kunlari, haftaliklar, oyliklar, tanlovlar, hasharlar o'tkazish bilan bog'liq ijtimoiy-amaliy faoliyat orqali xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish.

3. Madaniy-ma'rifiy muassasalarni tashkil etish: savodsizlikni tugatish maktablari, maxsus tashkil etilgan tayyorlov va malaka oshirish kurslari, klublar va turli to'garaklar, tashviqot punktlari hamda boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarni tashkil qilish orqali ayollarning ta'lim va madaniy saviyasini yuksaltirish.

Mazkur yo'nalishlarda olib borilgan sovet hokimiyatining xotin-qizlarga munosabat masalasidagi siyosati kommunistik mafkura manfaatlariga moslashtirilgan bo'lsa-da, sharq ayollarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalaridagi faolligini oshirishga hamda ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashda muhim omil bo'ldi. Biroq, o'tkazilgan tadbirlarning negizida xotin-qizlar mehnatidan imkoni boricha ko'proq va "unumli" foydalanish maqsadi yashiringan bo'lib, bu tadbirlar ayollarning oilani emas, balki jamiyatda erkaklar bilan teng asosda faol ishtirok etishni istaydigan butunlay yangi avlodini tarbiyalash uchun xizmat qildi.

Shuningdek, xotin-qizlar tashkilotlari ayollar huquqlarini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Sovet hokimiyati nikoh, ajralish va meros masalalarida ayollar huquqlarini himoya qiluvchi qonunlar qabul qildi. Xususan, "Xotin-qizlar va erkaklarga teng mehnat uchun teng haq to'lash to'g'risida", "Onalik va bolalikni muhofaza etish to'g'risida" dekretlar qabul qilindi[12], bolalar bog'chalari tashkil etildi, ko'p bolali ayollarga nafaqalar berildi. 1918-yilgi birinchi sovet Konstitutsiyasida xotin-qizlarga erkaklar bilan birga davlat lavozimlariga saylash va saylanish huquqi berildi[13]. Ammo, arxiv hujjatlari shuni ko'rsatadiki, qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy sharoitlar yaratilmagan. Ayniqsa, ayollarni "ozod qilish" siyosati huquqiy masala bo'lsa-da, bu borada ijtimoiy va iqtisodiy me'yorlar haqida emas, balki diniy va an'anaviy jamiyat masalasi ekanligiga e'tibor qaratilmadi. Qonun va qarorlardagi noaniqliklar ularni amaliyotga tatbiq etishda qiyinchiliklarga sabab bo'ldi.

Xotin-qizlar tashkilotlari ushbu qonunlarni mahalliy darajada joriy etish va ayollarga ularning huquqlarini tushuntirish vazifasini bajardi. Xotin-qizlar tashkilotlari ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunlarni targ'ib qildi, masalan, erta nikoh va ko'pxotinlilikka qarshi kurashdi. O'zbekistonda "Hujum" kampaniyasi bu jarayonning muhim qismi bo'ldi, garchi u mahalliy qarshiliklarga duch kelsa ham. Tashkilotlar ayollarning ovoz berish huquqini faol targ'ib qilib, ularning siyosiy ongini oshirdi. Biroq, xotin-qizlar tashkilotlari kommunistik partiyaning qattiq nazorati ostida ishlaganligi sababli, ularning faoliyati ko'pincha Sovet ideologiyasiga xizmat qilishga qaratildi. Bu esa mahalliy ayollarning haqiqiy ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldirishga olib keldi. Masalan, tashkilotlar ayollarni sanoat va qishloq xo'jaligida ishlashga undagan bo'lsa-da, ish sharoitlari ko'pincha og'ir va xavfli edi. Bundan tashqari, O'zbekistonda xotin-qizlar tashkilotlari faoliyati mahalliy an'anaviy qadriyatlar bilan to'qnashdi. Sovet hokimiyatining radikal islohotlari, masalan, diniy an'analarga qarshi chiqish, mahalliy aholining noroziligini keltirib chiqardi. Xotin-qizlar tashkilotlari bu ziddiyatni yumshatish uchun mahalliy urf-odatlar bilan murosaga kelishga harakat qildi, ammo bu harakatlar har doim ham muvaffaqiyatli bo'lmadi. O'zbek jamiyati patriarxal tuzumga asoslangan bo'lib, ayollarning ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishi ko'plab oilalarda qabul qilinmasdi. Masalan, qiz bolalarni maktabga yuborish yoki ayollarni mehnat faoliyatiga jalb qilish ota-onalar tomonidan qarshilik bilan kutib olindi. "Paranji tashlash" kampaniyasi bu qarshilikning eng yorqin namunasidir. Ko'plab o'zbek ayollari an'anaviy kiyimlardan voz kechishni istamadi, chunki bu ularning shaxsiy va madaniy o'zligiga putur yetkazishi mumkin edi. Ba'zi hollarda bu qarshilik zo'ravonlikka aylandi, masalan, 1920-yillarda Farg'ona vodiysida xotin-qizlar bo'limlari faollariga qarshi hujumlar qayd etildi. Tashkilotlar bu muammoni hal qilish uchun mahalliy yetakchilar bilan hamkorlik qildi, ammo jarayon sekin va murakkab kechdi. "Paranji tashlash" kampaniyasi (1927) ayollar ozodligining ramzi sifatida targ'ib qilindi. Xotin-qizlar tashkilotlari ayollarni ushbu kampaniyada ishtirok etishga undadi, bu esa

ayollarning ijtimoiy hayotga ochiqroq chiqishiga yordam berdi. Garchi bu kompaniya qarshilikka uchragan bo'lsa-da, u ayollarning o'z huquqlari haqida o'ylashini rag'batlantirdi.

1920-yil mart oyidan boshlab xotin-qizlar bo'limi qoshida xotin-qizlar bilan ishlash sho'balari tashkil etildi[14]. 1921-yilda RKP(b)ning Turkiston O'lka qo'mitasida xotin-qizlar bo'limi Turkiston KP MQ xotin-qizlar bo'limiga aylantirildi[15].

1920-yillarning birinchi yarmida sovetlarning ayollarga nisbatan siyosatining markaziy tamoyili ularga to'liq huquqlar berish edi. Ushbu maqsaddan ayollar mehnatiga muhtoj bo'lgan davlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish uchun foydalanildi. Ayollarni ishlab chiqarishga va jamoat ishlariga keng jalb qilish uchun ularni oiladan "ozod qilish" kerak edi. Shunday qilib, ayollarga erkaklar bilan teng huquqlar berish, birinchi navbatda, uy xo'jaligini boshqaradigan, bolalarni tarbiyalaydigan va uyda o'tirgan ayollarning jamiyatda o'rnatilgan stereotiplarga qarshi edi.

1930-yilga kelib, "xotin-qizlar masalasi"ning hal etilganligi asos qilinib, xotin-qizlar bo'limlarining faoliyati VKP(b) MQning 5 yanvardagi qarori bilan tugatilishi[16] natijasida 1930-yili "Kommunistka" va 1934-yili "Yangi yo'l" jurnallarini nashr etish to'xtatildi. Qarorda xotin-qizlar bo'limlarining vazifalari firqa qo'mitasi va uning bo'limlariga o'tganligi ta'kidlanib, maxsus sektorga aylantirildi[17]. Sektorlar zimmasiga sovet hukumati va kommunistik partiya tomonidan "xotin-qizlar masalasining hal bo'lganligi" haqidagi xulosani ilmiy-amaliy jihatdan mustahkamlash vazifasi yuklatildi. Xotin-qizlar o'rtasida olib boriladigan jami chora-tadbirlarning mas'uliyati Mehnat va turmushni yaxshilash Komissiyalari zimmasiga o'tdi[18]. Komissiya tarkibida respublika bo'yicha 100 dan ortiq a'zo bo'lib, ular komissiya zimmasidagi katta hajmdagi ishlarni bajarish imkoniyatidan yiroq edi. Shuning uchun komissiyalar 1930 yil may oyida ittifoq respublika, viloyat, shahar va mahalliy ijroiya qo'mitalari tarkibida faoliyat yurituvchi qo'mitalarga aylantirildi va 1932-yilda o'z vazifasini bajarib bo'lgan organ sifatida tugatildi[19]. Aslida bu jarayonga sabab, sovet hokimiyati va kommunistik partiyaning xotin-qizlarni "iqtisodiy ozodlikka chiqarish" shiori ostida ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish, ular mehnatidan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish bilan jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchiga aylantirib, o'z maqsadiga erishishida hamda ijtimoiy-siyosiy faolligi oshib borgan ayollarning o'z haq-huquqlari uchun kurashib, mustabid tuzum tomonidan o'zlariga nisbatan olib borilayotgan siyosatdan norozilikning kuchayib borishida edi.

Umuman olganda, sovet hokimiyati va kommunistik partiya ma'muriy-buyruqbozlik tizimining barcha shakl va usullaridan foydalangan holda mahalliy millat ayollarini ijtimoiy-siyosiy jabhaga tortib, ulardan partiya saflarini to'ldirib, "yangi socialistik jamiyat"ni qurishda o'z tarafdorlariga erishishga intildi. Natijada o'zbek xotin-qizlarining ijtimoiy-siyosiy ongi va faolligi ma'lum darajada o'sdi. O'zbek ayollarining tabiatida mavjud bo'lgan vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ularini sun'iy ravishda Ittifoq deb atalgan hududga yoyishga harakat qilindi hamda ularning siyosiy va huquqiy ongini shakllantirmaslikka qaratilgan siyosat milliy o'zlikni anglash va mustaqillik uchun kurashishga zarur bo'lgan tug'ma ehtiyojlarning uyg'onishiga yo'l qo'ymadi.

Urush yillarida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning xalq xo'jaligida hal qiluvchi ijtimoiy kuch sifatidagi rolining o'sishi davr talabiga aylanganligi bois, xotin-qizlar bo'limlari 1943-yil may oyida VKP(b) MQning qarori bilan qisqa muddatga qayta tashkil etilib, ular faoliyatida ishning yo'nalish, shakl va usullari ancha rivojlantirilib, murakkablashtirib borildi. Xususan, VKP(b) MQning 1943-yil 22 yanvardagi qaroriga muvofiqhamda 18 maydagi O'zKP(b)MQ byurosi qarori asosida Markaziy qo'mita apparatida xotin-qizlar o'rtasida ishlar bo'yicha bo'lim va bo'lim mudiri, respublika partiya qo'mitalari qoshida xotin-qizlar sovetlari tashkil etilib, ularga viloyat partiya qo'mitalarida obkom sekretarlari (viloyat kotiblari)ning o'rinbosarlari, shahar va rayon partiya qo'mitalarida xotin-qizlar ishlari bo'yicha sekretarlar rahbarlik qilgan. Butun respublikada bu sohaga mas'ul sifatida viloyat partiya qo'mitalarida 10 ta sekretar yordamchisi. shahar partiya qo'mitalarida 13, shahar tarkibidagi rayon partpya qo'mitalarida 11, qishloq rayon partiya qo'mitalarida 133 sekretar tayinlangan edi. Yangi tashkil topgan mazkur tashkilotlar zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan edi:

- xotin-qizlar o'rtasida partiyaviy-siyosiy va ommaviy-tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish;
- xotin-qizlarning front va front orqasini har tomonlama mustahkamlashga qaratilgan mehnatlarini uyushtirish;
- jangchilarning oilalariga zarur bo'lgan yordamni tashkil etishga ko'maklashish . Bu bo'limlar kasaba uyushmalari hamda boshqa jamoat tashkilotlari orqali xotin-qizlar o'rtasida ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borgan. Bu tashkilotlar qonunan mustaqil bo'lsalar-da, aslida partiyaning ko'rsatmasi asosida uning siyosatini amalga oshirgan[20].

Urushdan keyingi yillarda ham xotin-qizlar bo'limining maqsad va vazifalari, avvalgidek, butun sovet jamiyatining maqsad va vazifalaridan ajralmagan holda amalga oshirildi. 50-yillarning oxiri - 60-yillarning boshlarida xotin-qizlar o'rtasida ishlarni tashkil etish va ularga rahbarlik qilish uchun korxonalar, muassasa, kolxoz va sovxozlarda xotin-qizlar kengashlari tuzila boshlandi. Chunki, 1956 yilda sovet xotin-qizlari qo'mitasi tuzilishi bo'ldi. Qator joylarda tuman va shahar xotin-qizlar kengashlari tashkil etildi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo sovet respublikalarida xotin-qizlar kengashlari faol tuzildi. Birgina O'zbekistonda 1964-yilda 93 ming etakchi, faol ayollarni birlashtirgan 5760 ta xotin-qizlar kengashi mavjud edi. Bu ko'rsatkich umumittifoq bo'yicha 240 mingtani tashkil etgan[21]. Ularning etakchilari "sovet ayollari"ning xalq xo'jaligi, fan-texnika va madaniyatni rivojlantirishda faol ishtirokini ta'minlashga munosib hissa qo'shdi[22]. Biroq, 60-yillarning oxiri-70-yillarda xotin-qizlar kengashlarining faoliyati susaya boshlaydi. Faqatgina 80-yillarning ikkinchi yarmiga kelib, birinchidan, markazning "qayta qurish" siyosati, ikkinchidan, esa "Hujum" harakatining 60 yilligi munosabati bilan xotin-qizlar kengashlarining faoliyati yana jonlana boshladi. 1987-yil yanvarda bo'lib o'tgan xotin-qizlarning Umumittifoq konferensiyasida xotin-qizlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan qator qarorlar qabul qilindi. Xususan, ayollarning mehnat sharoitini yaxshilash, mehnat muhofazasini ta'minlash, korxonalar va tashkilotlarda gigiena-so'lomlashtirish masalalariga e'tibor qaratish, madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish, ommaviy sportga jalb etish, maktabgacha ta'lim muassasalari va bolalar sanatoriylariga e'tibor qaratish shular jumlasidandir[23].

Sovet davrida xotin-qizlar tashkilotlari ijtimoiy institut sifatida jamiyatda ayollar huquqlarini himoya qilish, ularni ishchi sinf maqsadlariga moslashtirish uchun mo'ljallangan edi. Kommunistik mafkura doirasida tashkil etilgan bu tizim mahalliy an'analar va o'ziga xos ijtimoiy tizimlarga nisbatan o'z ta'sirini o'tkazdi. Ya'ni, ayollarning jamiyatdagi o'rni tubdan o'zgartirildi. Xotin-qizlar tashkilotlari orqali ayollarga ta'lim, ish bilan ta'minlash, jamiyatda faollik ko'rsatish imkoniyati berildi. Biroq, ma'lumki bu tashkilotlar kommunistik partiyaning nazorati ostida ishlagan va mafkuraviy maqsadlarga xizmat qilgan.

Umuman olganda, sovet hokimiyatining xotin-qizlarga munosabat masalasidagi yondoshuvda kommunistik mafkuraning mustamlakachilik mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ldi:

Sovet rejimi tomonidan o'z qonunlari va ideologiyasi mahalliy jamiyatlarga majburan singdirildi. Xotin-qizlar tashkilotlari orqali mahalliy ayollarga nisbatan nazorat o'rnatildi, ularning an'anaviy qadriyatlari va o'zaro munosabatlari toptaldi. Sovet siyosiy tartiboti repressiyalari doirasida ayollarning erkinligi emas, balki ularni yangi tuzumga bo'ysundirish maqsadi ko'zlandi. Bu orqali mahalliy hududlarda madaniy yetakchilik va ijtimoiy boshqaruv qo'lga olindi. Sovet davridagi xotin-qizlar tashkilotlari dastlab ayollarning huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan bo'lsa-da, ularni kommunistik mafkura mustamlakachilik vositasi sifatida ham qarash mumkin. Bu tashkilotlar mahalliy madaniyatga bosim o'tkazib, ayollarning an'anaviy dastur va hayot tarzini o'zgartirishga xizmat qilgan, natijada sovet mustamlakachilik tizimining ijtimoiy boshqaruv mexanizmlaridan biriga aylangan.

Xulosa qilib, shuni ta'kidlash joizki, sovetlar xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etish orqali o'z mustamlakachilik siyosatining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalandilar. Jumladan:

- sovetlar mahalliy millat ayollarini ijtimoiy-siyosiy jabhaga tortib, ulardan partiya saflarini to'ldirib, "yangi socialistik jamiyat"ni qurishda o'z tarafdorlariga erishishga intildi;

- o'zbek ayollarining tabiatida mavjud bo'lgan vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ularini sun'iy ravishda Ittifoq deb atalgan hududga yoyishga harakat qildi;
- sovetlar mahalliy millat xotin-qizlaridan g'arazli maqsadlar yo'lida foydalanib, ularning siyosiy va huquqiy ongini shakllantirmaslikka qaratilgan siyosat olib bordi;
- bu esa, o'z navbatida mahalliy millat vakillarida milliy o'zlikni anglash va mustaqillik uchun kurashishga zarur bo'lgan tug'ma ehtiyojlarning uyg'onishiga yo'l qo'ymadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Дмитриева С.А. Худжум – значит наступление. – Ташкент: Узбекистан, 1987. – С.21. (Dmitrieva S.A. "Khujum means offensive." - Tashkent: Uzbekistan, 1987. - Page 21).
2. Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса. – Ташкент: Фан, 1975. – С.52. (Aminova R.Kh. October and the solution to the women's issue. - Tashkent: Fan, 1975. - Page 52.)
3. O'sha yerda.
4. Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса. – Ташкент: Фан, 1975. – С.52; За пять лет. Сборник по вопросам работы Коммунистической партии среди женщин Средней Азии. – Москва, 1925. – С.118-119. (Aminova R.Kh. October and the solution of the women's question. – Tashkent: Fan, 1975. – P.52; For five years. Collection on the work of the Communist Party among the women of Central Asia. – Moscow, 1925. – P.118-119.)
5. O'sha yerda
6. За пять лет. Сборник по вопросам работы Коммунистической партии среди женщин Средней Азии. – Москва, 1925. – С.112 (Over the past five years. A collection of papers on the work of the Communist Party among the women of Central Asia. Moscow, 1925, p. 112)
7. Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса. – Ташкент: Фан, 1975. – С.63. (Aminova R.Kh. October and the Resolution of the Women's Question. Tashkent: Fan, 1975, p. 63)
8. Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса. – Ташкент: Фан, 1975. – С.64. (Aminova R.Kh. October and the Resolution of the Women's Question. Tashkent: Fan, 1975, p. 64)
9. Дмитриева С.А. Худжум – значит наступление. – Ташкент: Узбекистан, 1987. – С.38-40. (Dmitrieva S.A. Khujum means an offensive. Tashkent: Uzbekistan, 1987, pp. 38-40).
10. Абдуллаева Я.А. Қорақалпоғистон хотин-қизлари...–Т.: - Б.88; Худжум-значит наступление. – С.91; Биккулова З.М. Из истории борьбы Коммунистической партии за раскрепощение женщин Каракалпакии.// Общественные науки Узбекистане.1962. №1. – С.29. (Abdullaeva Ya.A. The history of the struggle of the Communist Party for the emancipation of women in Karakalpakstan...–Т.: - B.88; Hujum means offensive. – P.91; Bikkulova Z.M. From the history of the struggle of the Communist Party for the emancipation of women in Karakalpakstan.// Social sciences of Uzbekistan.1962. No. 1. – P.29.)
11. Toshkentda I.Finkelshteyn, L.Shumilova, B. Bendetskaya, K.Sudakova, S.T.Lyubimova, M.F.Muratova, A.A.Aksentovich, E.A.Ross, T.P.Arinkina F.Redkina, Yu.Kislova, L.Dvorkina, Lisovaya, Z.Burnasheva, Qashqadaryoda M.Pozdnyakova, Qo'qonda Gagarina, Uspenskaya, Koziryova, Samarqandda X.T.Nikonova, P.Volkova Farg'onada Ye.S.Rezumova, Ye.Netesova, Severtseva, Sirdaryoda Z. Prishepchik, Buxoroda R.G.Shereshevskaya, L.Otmar-Shteyn, Qoraqalpog'istonda Kul'kina, Pogorel'skaya, Skryabina, A.A.Burlova kabi rus va tatar millatiga mansub ayollar sovetlar siyosatini targ'ib etishgan//Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса. – Ташкент: Фан, 1975. – С.64.
12. O'zMA. R-17- jamg'arma, 1-ro'xat, 286-ish, 126-varaq.
13. Qaragang: Конституция (Основной Закон) Туркестанской республики. – Т.: Издательство комиссариата по национальным делам. 1918 г.; Сборник декретов и приказов Совета Народных Комиссаров Туркестанской Федеративной Республики. –Т.: 1918. – С. 33; Великий Октябрь и раскрепощение женщин Средней Азии и Казахстана (1917-1936 гг.). Сб.док.и матер. 1971. – С. 46-47.; Резолюции и постановления съездов Компартии Туркестана 1918-1934 гг. –Т.: Госиздат Уз ССР. 1958. – С.193. (Constitution (Basic Law) of the Turkestan Republic. Т.: Publishing House of the Commissariat for National Dalam. 1918;

Collection of decrees and orders of the Council of People's Commissars of the Turkestan Federative Republic. T.: 1918. – P. 33; The Great October Revolution and the emancipation of women in Central Asia and Kazakhstan (1917-1936). Collection of documents and materials. 1971. – P. 46-47.; Resolutions and resolutions of the congresses of the Communist Party of Turkestan 1918-1934. T.: State Publishing House of the Uzbek SSR. 1958. – P. 193.)

14. O'sha yerda.

15. Аминова Р.Х. Октябрь и решение женского вопроса в Узбекистане. – Т.: Фан. 1975. – Б.71. (Aminova R.Kh. October and the solution to the women's issue in Uzbekistan. – T.: Fan. 1975. – P.71.)

16. Абдуллаева Я.А. Қорақалпоғистон хотин-қизлари... - Б .69. (Abdullaeva Ya.A. Women of Karakalpakstan... – P.69.)

17. Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии... –Ташкент: Фан, 1991. – С.62.; (Alimova D.A. Women's issue in Central Asia... – Tashkent: Fan, 1991. – P. 62.); Абдуллаева Я.А. Қорақалпоғистон хотин-қизлари... – Тошкент: – Б.69. (Abdullaeva Ya.A. Women of Karakalpakstan... - B .69.).

18. Mazkur komissiya 1926 yil 20 sentyabrda SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi Prezidiumining qarori bilan “madaniy jihatdan qoloq millatlarga mansub ayollarni ishlab chiqarishga va davlat apparatiga jalb etishga ko'maklashish, ular bilan hamkorlik qilish, shuningdek, ularning mehnatini yengillashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish” maqsadida tuzilgan edi.

19. Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии... – Т.: Фан. С.63; Ризель Ф. Достижения и недочёты в работе среди женщин // Партийное строительство.1935. №4. – Б.19-24; Гальперштейн Я. Женщины и кадры//Народное хозяйство Средней Азии. 1930. № 9-10. – С.36.(19. Alimova D.A. The women's question in Central Asia... - T.: Fan. P. 63; Riesel F. Achievements and shortcomings in work among women // Party building. 1935. No. 4. - B. 19-24; Galperstein Ya. Women and cadres // National economy of Central Asia. 1930. No. 9-10. - P. 36.).

20. Мадррахимова Р. Ўзбекистон хотин-қизларининг улуғ ватан уруши йилларидаги меҳнат ва ҳарбий жасоратлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.14. (Madrakhimova R. Labor and military valor of Uzbek women during the Great Patriotic War. – Tashkent: Fan, 1981. – P.14).

21. Жўраева Н. Ўзбекистонда хотин-қизларга муносабат (XX асрнинг 20 -80 йиллари мисолида): ўқув кўлланма. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2013. – 146 б.(Juraeva N. Attitude towards women in Uzbekistan (on the example of the 20-80s of the 20th century): a textbook. – Tashkent: Publishing House of the National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2013. – 146 p.

22. Каменова Г.Н. Деятельность женсоветов в решение социальных вопросов: история и современность. 2014// file:///C:/Users/User/Downloads/ deyatelnost-zhensoveto-v-reshenii-sotsialnyh-voprosov-istoriya-i-sovremennost. pdf

23. Попова Н. В., О роли женщин в социалистическом обществе. – Москва, 1967. – 96с.; <https://search.worldcat.org/de/title/659471796>; Равноправие женщин в СССР. Материалы международного женского семинара. – Москва, 15 сент. – 1 окт. 1956, М., 1957.,-32с.

24. Каменова Г.Н. Деятельность женсоветов в решение социальных вопросов: история и современность. 2014//file:///C:/Users/User/Downloads/ deyatelnost-zhensoveto-v-reshenii-sotsialnyh-voprosov-istoriya-i-sovremennost.pdf

25. O'zMA, R-34- jamg'arma, 1-ro'uxat, 266-ish, 601- varaq.

26. O'z MA, R-17- jamg'arma, 1- ro'uxat, 286-ish, 126-varaq.

27. Инояттов Т.Т. Суды Советского Узбекистана в борьбе с пережитками. Ташкент, Труды САГУ,1958. вып.124.кн.4. – С.18. (Inoyatov T.T. "The Courts of Soviet Uzbekistan in the Fight Against Relics." Tashkent, Proceedings of the Central Asian State University, 1958, issue 124, book 4, page 18).

28. Шариат ва шўро қонунида хотин-қизлар// Янги йўл. 1929.№.4. – Б.8. ("The Shariat of Central Asia: A Guide to the Development of Sharia Laws." Yangi yul. 1929, no. 4, page 8).

29. “Народное хозяйство Средней Азии”.1930.№9-10. – С.35. ("The National Economy of Central Asia." 1930, no. 9-10, page 35).
30. O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Ikkinchi kitob. –Toshkent, 2000. –B. 376.



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000